

**O‘ RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

## **TEXNIK TIZIMLARDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI**

**Amaliy mashg‘ulotlarni bajarish uchun  
o‘quv-uslubiy ko‘rsatmalar**



**TOSHKENT – 2022**

Tuzuvchilar: Kadirov M.M., To‘laganov Z.Ya., Zokirova F.R.

“Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari” fanidan amaliy mashg‘ulotlar ishlarini bajarish uchun o‘quv-uslubiy ko‘rsatmalar. - Toshkent: ToshDTU, 2022 y. 50b.

Ushbu amaliy mashg‘ulotlar kechki ta’lim talabalarining “60711400-Texnologuk jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (tarmoqlar bo‘yicha)”, “60610200 - Axborot tizimlari va texnologiyalari (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)”, “60711300 - Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti (tarmoqlar bo‘yicha)”, “60711500 - Mexatronika va robot texnika”, “60711600 - Intellektual muhandislik tizimlari (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)”, “60711200 - Elektronika va asbobsozlik (elektronika sanoatida)” ta’lim yo‘nalishlariga mo’ljallangan bo’lib, u texnik tizimlarda ma’lumotlarni qayta ishlash, MathCad tizimining ishlash texnologiyasini o‘rganish, MathCad integrallashgan sohasida muhandislik masalalarini yechish, MatLab muhitining integrallashgan sohasini o‘rganish va ob‘yektga yo‘naltirilgan dasturlash, shuningdek himoyalashning kriptografik usullaridan foydalanish kabi mavzular bo‘yicha amaliy ishlarni bajarish uchun mo’ljallangan.

*Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy-uslubiy kengashi qaroriga muvofiq chop etildi  
(11-sonli bayonnomma, 28.09.2022 y.)*

Taqrizchilar:

Abdurashidova K.T - TATU “Kompyuter tizimlari” kafedrasi dotsenti;

Karimova N.O. - ToshDTU “Axborot texnologiyalari” kafedrasi dotsenti.

# 1 - AMALIY MASHG'ULOT

## MATHCAD TIZIMI. TIZIMNING ISHLASH TEKNOLOGIYASINI O'RGANISH. MATHCAD INTEGRALLASHGAN SOHASIDA MUHANDISLIK MASALALARINI YECHISH

**Ishning maqsadi:** MatCAD tizimini interfeysi bilan ishlash va tizim yordamida texnik-muhandislik hisoblashlarni amalga oshirish ko'nigmalarini olish.


### **Reja:**

1. MathCAD dasturiy sohasini o'rganish.
2. Ishchi paneli tarkibi.
3. Asosiy instrumentlar.
4. Ishchi sohani boshqarish.

### **Nazariy qism**

MathCAD integrallashgan tizim bo'lib, matematik hamda texnik-muhandislik hisoblashlarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan. Hisoblash vaqtida tushunarilik, aniqlik, oddiylik kabi xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Elektron jadvalarga xos foydalanishda oson.

MathCAD dasturini ishga tushirganda 1-rasmdagi oyna ochiladi.



1-rasm. MathCAD tizimining ishchi oynasi

MathCAD dasturining bosh menyusi boshqa MS Windows ilovalarning bosh menyulari kabi imkoniyatlarga ega bo'lgan buyruqlardan tashkil topgan.

**File menyusi** –fayllar bilan ishslash.

**Edit menyusi** –Hujjalarni tahrirlash.

**View menyusi** – darcha elementlarni sozlash.

**Insert menyusi** – MathCAD hujyatga grafik ma'lumotlar, matritsalar, funksiyalar, gippersilkalar, komponentalarni qo'yish va obyektlarni so'zlash imkonini beradi.

**Format menyusi** – sonlar, formulalar, matnlar, abzaslar, kolontitullar va boshqalarga turli ko'rinishdagi parametrlarni belgilovchi buyruqlarni o'z ichiga oladi.

**Math menyusi** – hisoblashlarni, rejim va parametrlarni o'rnatadi.

**Symbolic menyusi** – simvol malumotlarni hisoblaydi.

**Window menyusi** – bir necha darchalarni o'zaro ketma-ket va ulardan birini aktivlashtirishga xizmat qiladi.

**Help menyusi** – ma'lumot markazi va ma'lumotnomalar.

### Math paneli tugmalari

MathCADning kuchli tomoni bu matematik simvollar, ularni ifodalash va kiritish insonga odatiy holatda berilgan. Ushbu instrumentlar paneleni bosh menyuning buyruqlari orasidagi **View → Toolbars** orqali ishga tushiriladi. **Math** panelida ishning qulayligi uchun ssilkalrning yig'indisi birlashtirilgan.

**Math** panelida 9 ta tugma joylashtirilgan bo'lib, har bir tugma o'z navbatida, maxsus vazifaga biriktirilgan instrumentlar panelini ishga tushiradi.

**Calculator.** Bu panelda matematik topshiriqlar buyruqlari, hamda ko'pincha foydalananiladigan funksiyalar joylashtirilgan. Bu tugmadan kalkulyator sifatida foydalaniш mumkin.

**Boolean** – taqqoslash operatorini va mantiqiy amallarni kiritish.

**Evaluation** – o'zgaruvchilar qiymatlarini va funksiyalarini o'zlashtirish operatori kirituvchi tugmasi bor.

**Graph** – grafika tuzish instrumenti.


**Vector and Matrix** – vektorlar va matrisalar bilan ishluvchi instrumentlar.

**Calculus** – integrallashgan elementlarning matematik ifodalar ko'rinishini differensiallashgan usulda ko'rsatadi. Bu paneldagi tugmalar qiymatlar summasi va ko'paytmalarini hisoblashga ijozat beradi.

**Programming** – dastur yozish instrumenti.

**Greek Symbol** – grek alifbo.

**Symbol** – Simvolli hisoblashlar uchun.



2-rasm. MathCad tizimining ishchi oynasi Math panelidagi ochilgan asboblar paneli

## **Matematik ifodalar**

MathCAD ifodasining asosiy matematik elementlariga berilganlar toifasi, operatorlar, funksiyalar va boshqaruv tuzilmalari kiradi.

*Operatorlar* – MathCAD elementlari, ular yordamida matematik ifodalar yaratish mumkin. Ularga masalan arifmetik amallar simvoli, yig'indini hisoblash belgilari, ko'paytmalar, integrallar va boshqalar kiradi.

### **MathCAD tizimida ishchi hujjatga buyruqlar yozish**

MathCAD tizimida buyruqlarni yozish qog'ozda yozib ishlaganga yaqin, va bu masalaning qo'yilishini va yechilishini osonlashtiradi. Natijada matematik vazifaning yechilishi dasturlashdan algoritmik tuzilishiga o'tadi.

Ma'lumotlar turiga sonli konstantalar, odatiy va tizimli o'zgaruvchilar, massivlar, (vektorlar va matrisalar) va fayl turdag'i ma'lumotlar.

### **O'zgarmaslarning foydalanish turlari**

MathCAD tizimida quyidagi turdag'i ma'lumotlar ko'rsatilgan:

1. Butun (2, -54, +43).
2. Haqiqiy (1.3, -2.23).
3. Notural(2.5+7i). Kichik birlikni yozishda maxsus tugma **Calculus** panelidan foydalanish tavsiya etadi.
4. Satrli. Odatda u izoh turi: «hisoblangan natija».
5. Tizimli. Tizimli konstanta oldindan belgilangan o'zgaruvchi, berilishi tizimni yuklash vaqtida beriladi. Bu konstantalarga misol  $e$  yoki  $\pi$ .

### **Oddiy hisoblashlar**

**Arifmetik** hisoblashning natijasi, undan keyin  $\Leftrightarrow$  yoki  $\Rightarrow$  belgisi qo'yilsa. Birinchi holatda natija *sonli* ko'rinishda, ikkinchisida *simvolli* ko'rindi.

Simvolli hisoblashga misol:

$$\frac{2.45}{6.178} + \frac{4}{52} - 76 - \frac{8}{87} \rightarrow -75.618462477305312281$$


Hisoblash tizimlarida arifmetik amallar bilan ish olib borilganda matematikaning oddiy qonunlari amal qiladi. Hisoblashlar boshqa turdag'i amallarni o'z ichiga olishi mumkin:

- ildiz chiqarish;
- darajasini kiritish;
- integrallash va differensiallash;
- faktorial va natija belgilari.

Amallarning ma'lum qismini **Calculator** panelidan olishimiz mumkin. Misol quyidagicha bo'lishi mumkin:

$$4.5 \cdot \left( \sqrt[5]{56.3} + \sqrt{14.356} \right) + 5.2^{1.8} - 4.89 + \frac{6.52}{4.78} = 43.046$$

**Hisoblash vaqtida sonlarning natijasini, Format→Result orqali boshqarish** mumkin. U holatda buyruq 3-rasmda ko'rsatilgan oynani hosil qiladi, qaysiki kirituvchi ma'lumotlarning parametrini qaytatan o'rnatishi kerak bo'ladi.



3-rasm. **Format** menyusining ishchi oynasi (формат **Result**)

Quyida arifmetik berilishi simvolli hisoblash ko'rsatilgan:

$$\frac{25}{47} - 3^{-2} + \frac{7}{3} \cdot 2.5 + \pi \rightarrow 6.2541371158392434988 + \pi \text{ float}, 4 \rightarrow 9.396$$

«→» belgisidan keyin simvolli hisoblashning natijasi korsatilgan. Simvolli hisoblash natijasini sonli hisoblash natijasiga o'zgartirishi Symbolic panelidagi float buyrug'i orqali amalga oshiriladi. Bu buyruq shablon bo'lib, foydalanuvchi belgilarning (sonlar) miqdorini kiritish kerak.


MathCAD tizimida grafika foydalanishda qulay va universal.

*Grafik soha* – 3 asosiy turga bo'linadi – ikki o'lchamli, uch o'lchamli va qo'yilgan grafik obrazlar. Ikki o'lchamli va uch o'lchamli grafika MathCAD tizimida o'zi qayta ishlangan ma'lumotlardan tuziladi.

**Dekort grafikani** yaratish:

1. Kursorni ishchi hujjatni bo'sh joyiga o'rnatib.
2. **Insert⇒ Graph ⇒X-Y Plot**, buyrug'ini tanlaymiz yoki **Shift+@** tugmalar yig'indisini tanlaymiz, **Graph** panelidagi tugma orqali. Dekort grafikaning shabloni hosil boladi.
3. X yoyi ostining o'rta belgisining tagida birinchi mustaqil o'zgaruvchini kriting. Vergul belgisidan so'ng-ikkinchisini va 10 gacha, misol uchun x1,x2....
4. Y yoyining chap tomonidan birinchi mustaqil o'zgaruvchini vergul bilan kriting va shu asosda qolganlarini ham kiritamiz va h.k. Misol uchun y1(x1), y2(x2),.....
5. Grafik muhitidan tashqariga sichqonchaning chap tugmasini bosing va siz grafikadan chiqasiz.


Ikki o'lchamli grafikani tuzish 4-rasmida ko'rsatilgan.



4-rasm. Dekart koordinata tizimida grafik muhit

MathCAD tizimida grafikani nuqtalar orqali tuzish mumkin. Bu holatda 2ta ustun qiymati kiritiladi  $x$  va  $y$  shu tekislikda shu ustunlar asnoda nuqtalar quriladi. Ustunlar qiymati **Matrix** panelidagi matritsa rasmli belgini bosib beriladi. Grafikaning o'zini olish uchun esa **Graph** panelidagi koordinata o'qi tugmasi bosiladi. Ramkada 2 ta qora to'ldirilmagan to'g'ri burchak marker hosil bo'ladi. Bitta markerga matritsa-ustuning nomi kiritiladi va u kordinatta o'qi, qaysiki y koordinata o'qiga qo'yiladi. Boshqa (Pastgi) markerga boshqa ustun nomi kiritiladi va keyinchalik **enter** tugmasi bosiladi.

**1- Mashq.** Misolni hisoblash:  $10\sin x - x^2$




5-rasm. Misolni ishlash

**2-Mashq.** Matrisalar bilan ishlash (matrisa usulida tenglamani yechish)

1-jadval

A				B
13.47	-2.29	3.29	4.75	2.32
2.75	11.11	2.28	-0.75	4.75
0.28	6.25	-9.21	0.79	2.25
3.21	2.21	0.49	7.87	-3.41

Instrumentlar panelidan matritsa tanlab matritsaning qiymatini kriting. Ishchi muhitda formulani kriting. 6-rasmda ko'rsatilgan.



6-rasm. Matrisa

### Nazorat savollari:

1. MathCad tizimida qaysi turdag'i hisoblashlar bajariladi?
2. MathCad tizimida funksiya grafigi qaysi holatda amalga oshiriladi?
3. MathCad tizimida matrisalar bilan ishslash usullari ko'rsatilgan?

## 2-AMALIY MASHG'ULOT MATHCAD TIZIMIDA FUNKSIYA GRAFIKLARINI AMALGA OSHIRISH

**Ishning maqsadi:** MatCAD tizimida funksiya grafiklarni qurish ko'nikmalarini o'rGANISH.

### Reja:

1. MathCAD dasturiy sohasini o'rGANISH.
2. Grafiklarni yaratish ma'lumotlarni kiritish
3. Ikki o'lchamli grafik qurishni o'rGANISH.
4. Uch o'lchamli grafik qurishni o'rGANISH.


### Nazariy qism

**Ikki o'lchamli grafik qurish.** Ikki o'lchamli funksiya grafigini qurish uchun quyidagi ketma-ketlikni bajarish kerak:

1. Qaysi joyga grafik qurish kerak bo'lsa, shu joyga krestli cursor qo'yiladi.
2. Matematik panelining Graph (Grafik) panelidan x-y Plot (Ikki o'lchovli grafik) tugmasi bosiladi.
3. Hosil bo'lgan ikki o'lchamli grafik shabloniga abssiss o'qi argumenti nomi, koordinata o'qiga funksiya nomi kiritiladi.

4. Argumentning berilgan o‘zgarish diapazonida grafikni qurish uchun grafik shabloni tashqarisi sichqonchada bosiladi. Agar argumentning diapazon qiymati berilmasa, u holda avtomatik ravishda argument diapazon qiymati 10 dan 10 gacha bo‘ladi va shu diapazonda grafik quriladi (7-rasm). Grafik formatini qayta o‘zgartirish uchun grafik maydoniga ikki marta sichqonchani bosish va ochilgan muloqot oynasidan kerakli o‘zgarishlarni qilish kerak.

Agar bir necha funksiyalar grafigini qurish kerak bo‘lsa va ular argumentlari har xil bo‘lsa, u holda grafikda funksiyalar va argumentlar nomlari ketma-ket vergul qo‘yilib kiritiladi. Bunda birinchi grafik birinchi argument bo‘yicha birinchi funksiya grafigini va ikkinchisi esa mos ravishda ikkinchi argument bo‘yicha ikkinchi funksiya grafigini tasvirlaydi va hokazo.



7-rasm. Funksiya grafigini qurish

Quyida grafik formati muloqot oynalarini ko‘rib chiqamiz.


6. X-Y Axes – koordinata o‘qini formatlash. Koordinata o‘qiga setka, sonli qiymatlarni grafikga belgilarni qo‘yish ba quyidagilarni o‘rnatish mumkin:
  - ✓ LogScale – logarifmik masshtabda o‘qga sonli qiymatlarni tasvirlash;
  - ✓ Grid Lines – chiziqli setkalar qo‘yish;
  - ✓ Numbered – koordinata o‘qi bo‘yicha sonlarni qo‘yish;
  - ✓ Auto Scale – son qiymatlar chegarasini o‘qda avtomatik tanlash;
  - ✓ Show Markers – grafikka belgi kiritish;
  - ✓ Autogrid – chiziqli setkasi sonini avtomatik tanlash.
2. Trace – funksiya grafiklarini formatlash. Har bir funksiya grafigini alohida o‘zgartish mumkin:
  - ✓ chiziqli ko‘rinishi (Solid – uzliksiz, Dot – punktir, Dash – shtrixli, Dadot – shtrixli punktir);
  - ✓ chiziqli rangi (Color);
  - ✓ grafik tipi (Type) (Lines – chiziqli, Points – nuqtali, Bar yoki SolidBar – ustunli, Step – pog‘onali grafik va boshqa);
  - ✓ chiziqli qalinligi (Weight);
  - ✓ simvol (Symbol) – grafikda hisoblangan qiymatlar uchun (aylana, krestik, to‘g‘ri burchak, romb).

3. Label – grafik maydoni sarlavhasi. Title (Sarlovha) maydoniga sarlavha matni kiritiladi.

4. Defaults – bu yordamida grafik ko‘rinishga qaytish mumkin.

**Mashq.** Hisoblash:  $y = \cos x + x \sin x + (\cos x)x \cos x$ .

Funksiya grafigini tuzish (8-rasm).



8-rasm. Funksiya grafigi


**Uch o‘lchamli grafik qurish.** Uch o‘lchamli grafik qurish uchun quyidagi ketma-ketlikni bajarish kerak.

1. Ikki o‘zgaruvchili funksiya nomini, keyin ( $:=$ ) yuborish operatori va funksiya ifodasini kiritish.
2. Grafik qurish kerak bo‘lgan joyga kursov qo‘yiladi.
3. Matematik panelining Graph (Grafik) panelidan Surface Plot (uch o‘lchamli grafik) tugmasi bosiladi. Shu joyda uch o‘lchamli grafik shabloni paydo bo‘ladi.
4. Shablon maydonidan tashqarisida sichqoncha bosiladi va grafik quriladi, masalan, 9-rasm chap tomon.

Ikki o‘zgaruvchili funksiya bo‘yicha grafik sirtini qurishni tez qilish maqsadida boshqa usul ham mavjud va u ayrim hollarda funksiya sirtini tuzishda funksiya massiv sonli qiymatlarini ishlataladi, masalan, 9-rasm chap tomon. Bunday grafikni qurish uchun quyidagi ketma-ketlikni bajarish kerak.

1. Diskret o‘zgaruvchilar yordamida ikki funktsiyaning o‘zgaruvchisi uchun ham qiymatlarini kiritish.
2. Massiv kiritish. Uning elementlari funksiya qiymatlari bo‘lib, ular berilgan funksiya argumentlari qiymatlaridan tashkil etiladi.
3. Kursov qaysi joyga grafik qurish kerak bo‘lsa shu joyga qo‘yiladi.
4. Grafik shabloniga funksiya nomi kiritiladi.
5. Shablon maydonidan tashqarisida sichqoncha bosiladi va grafik quriladi, masalan, 9-rasm o‘ng tomon.

Grafik formatini qayta o‘zgartirish va unga ranglar berish uchun grafik maydonini ikki marta sichqonchani bosish va ochilgan muloqot oynasidan kerakli o‘zgarishlarni qilish kerak. Bu o‘zgartirishlar muloqot oynasi 10-rasmida berilgan.



9-rasm. Ikki o'zgaruvchili funksiya grafigini qurish


Bunda:

- ✓ Surface Plot – grafik sirti;
- ✓ Contour Plot – grafik chizig'i darajasi;
- ✓ Data Points – grafikda faqat hisob nuqtalarini tasvirlash;
- ✓ Vector Field Plot – vektor maydoni grafigi;
- ✓ Bar Plot – uch o'lchovli grafik histogrammasi;
- ✓ Patch plot – hisob qiymatlari maydoni.

Bulardan tashqari yana bir qancha boshqarish elementlari mavjud. Ular grafikni formatlashda keng imkoniyatni beradi. Masalan, grafik masshtabini o'zgartirish, grafikni aylantirish, grafikga animatsiya berish va boshqa. 9-rasmda uch o'lchamli grafikni formatlash oynasi berilgan.

Grafikni boshqarishning boshqa usullari quyidagilar:

- ✓ *Grafikni aylantirish* uni ko'rsatib sichqonchaning o'ng tugmasini bosish bilan amalga oshiriladi.
- ✓ *Grafikni masshtablashtirish* Ctrl tugmasini bosib sichqoncha orqali bajariladi.
- ✓ *Grafikga animatsiya berish* Shift tugmasini bosish bilan sichqoncha orqali amalga oshiriladi.




10-rasm. Grafikni formatlash oynasi

**Uch o'lchamli yoki 3D grafika** ikki o'zgaruvchan funksiyani korsatadi  $Z(X, Y)$ .

MathCAD tizimida oldingilarda uch o'lchamli grafikani tuzishda yuzani matematik aniqlash kerak edi (11-rasm, 2 usul). Keyinchalik MathCAD *CreateMesh* funksiyasi qo'll aniladi.


**CreateMesh( $F$  (yoki  $G$ , yoki  $f_1, f_2, f_3$ ),  $x_0, x_1, y_0, y_1, xgrid, ygrid, fmap$ )** – Ma'lum funksiyani yuzasida to'r hosil qiladi,  $F$ .  $X_0, x_1, y_0, y_1$  – o'zgaruvchilar diapazonining oz'garishi,  $xgrid, ygrid$  – o'zgaruvchilar to'ri hajmi,  $fmap$  – ko'rsatish funksiyasi. *CreateMesh* funksiyasi ozgaruvchilar bilan yuzada to'r hosil qiladi -5dan 5gacha va  $20 \times 20$  nuqtali to'r.

*CreateMesh* funksiyasidan foydalanish 3D grafika tuzish 11-rasm 1 usulda ko'rsatilgan. 11-rasmda bitta yuza har xil usul bilan tuzilgan, turli formatlash, yuza tegi va yuzaning o'zi ham kontur grafikada berilgan. Bu tuzilish rasmga ect taassurot beradi.



11-rasm. Bir rasmda 3D grafikani turli ko'rinishi

Bu grafika **Insert⇒ Graph ⇒ 3D Scatter Plot** buyrug'i orqali tuziladi, yuzasi parametrlidir uch matrisalar yordamida kiritiladi ( $X, Y, Z$ ). Boshlangich ma'lumotlarni aniqlash uchun *CreateSpace* funksiyasidan foydaliniladi



12-rasm. 3D nuqtali grafikani tuzish

**CreateSpace ( $F, t_0, t_1, tgrid, fmap$ )** – bunda uch o'lchamli vector massiviga qaytiladi.  $X$ -,  $y$ -va  $z$ -koordinatalari,  $F$  aniq funksiyasi.  $T_0$  va  $t_1$  –

o'zgaruvchilarning o'zgarish diapazoni, *tgrid* – o'zgaruvchining o'lchov setkasi, *fmap* – aks etish funksiyasi.

### Nazorat savollari:

1. Ikki o'lchamli grafik qurish qanday amalga oshiriladi?
2. Uch o'lchamli grafik qurish qanday amalga oshiriladi?
3. Funksiyalar bilan ishlash qanday amalga oshiriladi.

## 3 – AMALIY MASHG'ULOT MATLAB MUHITI, UNING INTEGRALLASHGAN SOHASINI O'RGANISH. SIMULINK PAKETI

**Ishning maqsadi:** Matlab dasturida matematik ifodalarni hisoblash. Simulink paketi bilan tanishish.


### Reja:

1. Matlab muhiti bilan tanishib chiqing.
2. Matlab integrallashgan sohasini o'rganish.
3. Grafika hosil qilish usullarini o'rganish

Matlabni yuklash uchun “Пуск” tugmachasi yordamida “Приложения” bandiga kiriladi va dasturlar ro'yxatidan Matlab dasturi tanlanadi yoki ishchi stolda



Matlab belgisi **MATLAB** ustida sichqoncha ko'rsatkichini ikki marta bosish kerak. Natijada quyidagi darcha hosil bo'ladi.



13-rasm. Matlab dasturining umimiy ko'rinishi

Matlab dasturi quyidagi qismlardan iborat:

1. Sarlavha qatori;
2. Asosiy menyular qatori (File, Edit, View, Graphics, Debug, Desktop, Window, Help);
3. Qo'shimcha amallarni bajarish uchun mo'ljallangan maxsus uskunalar paneli (piktogrammalar);
4. "Current Directory" va "Workspace" darchalari ("Toolbox"da joylashgan modular bilan ishlash imkonini beradi);
5. "Command History" darchasi (oldin ishlatilgan operatorlarni ko'rish va ulardan foydalanish imkonini beradi);
6. Ishi maydon;
7. "Start" bo'limi.

MATLAB tizimi shunday ishlab chiqilganki, hisoblashlarni, foydalanuvchi dasturini tayyorlamasdan to'g'ridan-to'g'ri bajarish mumkin. Bunda Matlab superkalkulyator vazifasini bajarib, qatorli komanda rejimida ishlaydi. Masalan,  $>>2+3$ , ans=5;  $>>2^3$ , ans=6 va hokazo.

Tizimda ishlash muloqotli (dialogli) tavsifga ega bo'lib, "savol berildi – javob olindi" qoidasi bo'yicha ishlanadi. Ya'ni foydalanuvchi klaviatura yordamida hisoblanishi lozim bo'lgan ifodani kiritadi, tahrir qiladi (agar lozim bo'lsa) va kiritishni ENTER klaviaturasini bosish bilan yakunlaydi.

Umuman olganda, ma'lumotlarni kiritish va hisoblashlarni amalga oshirish quyidagicha amalga oshiriladi:

- Boshlang'ich ma'lumotlarni kiritishni ko'rsatish uchun  $>>$  belgidan foydalaniladi;
- Ma'lumotlar oddiy yozuvli tahrir yordamida kiritiladi;
- Biror bir ifoda hisoblash natijasini blokirovka qilish uchun mazkur ifodadan keyin - ; (nuqta vergul) qo'yiladi;
- Hisoblashlar natijasini ko'rsatuvchi o'zgaruvchi aniqlanmagan bo'lsa, u holda Matlab tizimi bunday o'zgaruvchi deb *ans* oladi;
- O'zlashtirish amali sifatida juda ko'plab dasturlash tillari kabi : = belgi emas, balki matematikadagi oddiy = ni o'zi olinadi;
- Sozlangan funksiyalar (masalan, sin) yozma harflar bilan yoziladi hamda ularning argumentlari oddiy qavslar ichida yoziladi;
- Hisoblashlar natijasi yangi qatorda  $>>$  belgisiz chiqadi;
- Muloqot "Savol berildi – javob olindi" ko'rinishida amalga oshadi.

Ma'lumki, juda ko'plab matematik tizimlarda, agar u son bo'lmasa, u holda sin(v) va exr(v) ifodalarni hisoblab bo'lmaydi, ya'ni tizim bunday ifodalarni xato deb beradi. Matlabda esa agar berilgan o'zgaruvchi ector bo'lsa, natija ham mazkur o'lchamdagи ector bo'ladi, agar matritsa bo'lsa, natija ham matritsa bo'ladi.

Komandali rejimda bir qatordagi belgilarning maksimal soni – 4096, m – fayllarda esa chegaralanmagan. Barcha matematik tizimlarning markaziy tushunchasi bu matematik ifodalardir. Ma'lumki, ular ustida amallar bajarilayotganda, asosan ularning sonli qiymatlaridan foydalaniladi (kam holatlarda belgi ko'rinishlaridan ham foydalaniladi).

Matlab ham matematik tizim bo‘lgani uchun bu yerda ham asosiy tushuncha matematik ifodalardir. Matlabda matematik ifodalarni ifodalashni qarab chiqaylik. Matlabda ifodalar bir qator ko‘rinishida ifodalanib, sonlarni butun qismlarini ajratish uchun verguldan emas balki nuqtalardan foydalaniladi. Quyida ba’zi bir ifodalarni Matlab va oddiy matematikadagi ifodalanishini ko‘rib chiqamiz:

2-jadval

Matlabda	Matematikada
$2+3$	$2+3;$
$2^3 * \sqrt{y} / 2$	$23\sqrt{y}/2$
$2.301 * \sin(x);$	$2,301\sin(x)$
$4 + \exp(3) / 5;$	$4 + e^3 / 5$

Matematik ifodalar sonlar, konstantalar, o‘zgaruvchilar, operatorlar, funksiyalar va turli xil maxsus belgilar ustiga quriladi. Ilgari aytib o‘tganimizdek, nuqta vergul, ya’ni ; belgi natijani chiqishini blokirovka qiladi, ammo *ans* maxsus o‘zgaruvchi yordamida natijani olishimiz mumkin. Son – Matlab tilining eng oddiy ob’yektlaridan biri bo‘lib, u miqdoriy ma’lumotlarni ifodalab beradi. Sonlarni konstanta deb hisoblash mumkin. Sonlar butun, kasr, fiksirlangan va suzuvchi nuqtali bo‘lishi mumkin. Ularni yaxshi ma’lum bo‘lgan ilmiy shaklda, ya’ni mantissa va son tartibini ko‘rsatgan holda ifodalash mumkin.

0  
-3  
2.301  
 $123.456e-24$   
 $-234.456e10$

Yuqorida ko‘rinib turibdiki, mantissadan sonning butun qismi kasr qismidan, juda ko‘plab dasturlash tillarida qabul qilinganidek, vergul orqali emas, balki nuqta orqali ajratiladi. Son tartibini mantissadan ajratish uchun ular orasiga e belgisi qo‘yiladi. “+” ishora sonlar oldiga qo‘yilmaydi, “-” ishora esa qo‘yiladi va uni unar minus deb nomlanadi. Sonlarda belgilar orasiga probel (bo‘sh joy) qo‘yish ruxsat etilmaydi.

Bundan tashqari sonlar kompleks bo‘lishi mumkin:  $z = \operatorname{Re}(z) + \operatorname{Im}(z)i$ . Bunday sonlar  $\operatorname{Re}(z)$  haqiqiy va  $\operatorname{Im}(z)$  mavhum qismiga ega bo‘linadilar. mavhum qism kvadrat darajasi -1 ga teng bo‘lgan,  $i$  va  $j$  ko‘paytuvchilarga ega bo‘ladi:

$3i$   
 $2j$   
 $2+3i$   
 $-3.141i$   
 $-123.456+2.7e-3i$

real ( $z$ ) funksiya kompleks sonning butun qismini,  $\operatorname{image}(z)$  – esa mavhum qismini ajratib beradi. Kompleks sonning modulini (kattaligini)  $\operatorname{abs}(z)$  funksiya, fazasini  $\operatorname{angle}(z)$  funksiya hisoblab beradi. Masalan:

```

>> i
Ans=0+1.000i
>>z=2+3i
Z=2.000+3.000i
>>abs(z)
Ans=3.6056
>>real(z)
Ans=2
>>Imag(z)
Ans=3
>>angle(z)
Ans=0.9828

```

Matlab dasturlash tilida o‘zgaruvchiga qiymat berish: <o‘zgaruvchi nomi> = < ifoda qiymati > komandasini yordamida amalga oshiriladi. Bu erda (=) tayinlash (qiymat berish) operatori vazifasini bajaradi.

Masalan, >> x= 5+exr (3);

Matlabning yaxshi xususiyatlardan biri shuki, unda avvaldan o‘zgaruvchini turi e’lon qilinmaydi, balki uni qiymatlariga qarab aniqlanaveradi. Demak ifoda qiymati vektor yoki matritsa bo‘lsa, u holda o‘zgaruvchi shunga mos bo‘ladi.

O‘zgaruvchi nomi (identifikator) – boshlanishi harfdan iborat ixtiyoriy sondagi belgilardan tashkil topgan bo‘lishi mumkin, ammo faqat boshidagi 31tasi orqali identifikatsiya qilinadi. O‘zgaruvchi nomi boshqa o‘zgaruvchilar bilan ustma-ust tushmasligi kerak, ya’ni nom noyob bo‘lishi lozim. O‘zgaruvchi nomi harfdan boshlangan bo‘lsada, orasida raqamlar va belgidan (подчеркивания) iborat bo‘lishi mumkin. Lekin ularning orasiga maxsus belgilar, masalan +, -, \*, / va boshqalarini qo‘yish mumkin emas.

Matlabda ma’lumotlar ustida bajariladigan ma’lum bir amalni bajarish uchun ishlatiladigan belgi operator deyiladi. Masalan, oddiy arifmetik amallar +, -, \*, / - operatorlarga misol bo‘ladi. Bu amallar ( $1*1$ ) o‘lchovlidan yuqori bo‘lgan matritsalar ustida bajarilsa va natija ham matritsa bo‘lsa, u holda amallar elementlararo bajariladi va \* amali. \*, / esa./, /. kabi belgilab amalga oshiriladi.

Masalan:

```

>> x=[2 4 6 8]
x= 2 4 6 8
>> u= [1 2 3 4]
u= 1 2 3 4
>> x/u
ans= 2
>> x.*u
ans= 2 8 18 32
>> x./u
ans= 2 2 2 2.

```

Matlabdagi barcha operatorlar ro‘yxatini ko‘rish uchun help ops komandasidan foydalilaniladi.

Ikki o‘lchovli grafika. Matlab tizimining eng katta xususiyatlaridan biri, unda grafik chizish imkoniyatining mavjudligidir. Biz Matlabda ikki vektor grafigini chizishning eng sodda va umumiy komandalari bilan tanishamiz.


Matlabda grafiklarni har xil koordinata sistemalarida qurish mumkin. Bulardan to‘g‘ri burchakli dekart koordinatalari sistemasi, polyar koordinatalari, sferik va silindrik sistemalarni keltirish mumkin. Undan tashqari koordinatalarni bir sistemadagi ko‘rinishidan boshqa ko‘rinishga o‘tkazish mumkin.

Biror bir sistemada grafik chizish uchun umumiy bo‘lgan ba’zi grafik chizish komandalarini keltiramiz:

- `plot(x,y)-x` va `y` vektorlarning dekart tekisligidagi grafigini hosil qiladi;
- `plot(y)-y` ning `y`-vektor elementlari nomerlarga nisbatan grafigini yasaydi;
- `semilogx(x,y)`- “`x`”ning logarifmi grafigini “`y`” ga nisbatan yasaydi;
- `semilogy(x,y)`-“`x`”ning grafigini “`y`” ning logarifmiga nisbatan yasaydi;
- `loglog(x,y)`-“`x`”ning logarifmini “`y`” ning logarifmiga nisbatan grafigini yasaydi;
- `grid` -koordinatalar sistemasida to‘rni hosil qiladi;
- `title ('matn')`- grafik tepasiga matn yozadi;
- `xlabel ('matn')`- “`matn`”ni “`x`” o‘qi ostiga yozadi;
- `ylabel ('matn')`- “`matn`”ni “`y`” o‘qining chap tomoniga yozadi;
- `text (x,y,'matn')`- “`matn`”ni (`x`, `y`) nuqtaga yozadi;
- `polar(theta, r)`- `r` va `theta` vektorlarning polyar koordinatalar sistemasida grafigini yasaydi (bu yerda `theta` faqat radianlarda beriladi);
- `bar(x)` yoki `stairs(x)`- “`x`” vektorning histogrammasini yasaydi;
- `bar(x,y)` yoki `stairs(x,y)`-“`u`” vektor elementlarini histogrammasini “`x`” vektorning elementlariga mos to‘plamga joylashtirib chizadi;

Ma’lumki, dekart koordinatalar sistemasida grafik chizish (`x`, `y`) juftligining qiymatlarini aniqlab, hosil bo‘lgan nuqtalarni kesmalar bilan tutashtirish orqali hosil qilinadi. Demak (`x`, `y`) juftliklar soni qanchalik ko‘p bo‘lsa, grafik ham shunchalik silliq va aniqroq bo‘ladi. Juftliklar avvaldan berilgan bo‘lishi yoki ma’lum funksiyaning argumenti va qiymatlaridan hisoblab hosil qilinishi yoki tajriba o‘tkazish natijasida olingan bo‘lishi mumkin. Masalan,  $y=e^x$  funksiyaning  $x \in [0,2]$  segmentdagi grafigini chizish kerak bo‘lsa, quyidagi matlab komandalari ketma-ketligi yetarli bo‘ladi:

```
>> x=0:.1:2;
>> y=exp(x);
>> plot(x,y)
```




14-rasm.  $y=e^x$  funksiya grafigi

`plot(x,y)` - komandasi grafik oynani ochadi va unda kerakli funksiya grafigini chizib beradi. Yangi komandani e'lon qilish uchun kursorni komandalar oynasiga o'tkazishimiz kerak. Grafik oyna qayta chizmaslik uchun har bir komandanadan keyin uch nuqta (...) qatorning davomi belgisini ishlatalish mumkin.

```
>> plot(x,y)...
>> grid,...
>> title('ko'rsatkichli funksiya'),...
>> xlabel('x'),...
>> ylabel('exp(x)'),...
```

Ko'pincha grafik komandalar M-faylga joylashtiriladi (Ishchi fayl yoki fayl funksiyalar). Bu usul xatoliklarni to'g'rilash uchun yaxshi imkoniyat beradi. Yana quyidagi misollarni ko'raylik:


```
% x ning logarifmini sin(x) ning logarifmiga nisbatan chizilgan grafigi
x=0:1:10;log(x,sin(x),'--ob');grid on
```



15-rasm. Funksiya grafigi

Bu yerda '--' -liniya turi, '0'-aylana tugun nuqta turi, 'b' - havorang liniya rangi. Endi boshqa grafik funksiyadan foydalanib ko'ramiz:

```
>> x=0:0.5:10;
>> semilogy(x,sin(x),'--or')
>> grid
```



16-rasm. Funksiya grafigi


Bu misollardan ko‘rinib turibdiki, matlab tizimida grafik chiziqlarining rangini, turini, tugun nuqtalarini ko‘rsatish va boshqa imkoniyatlar mavjud.

2. Gistogrammalar. Polyar koordinatalarda grafika. Amaliy hisoblarda biror vektor tarkibini tasvirlaydigan ustunli diagrammalar deb ataluvchi gistogrammalar ko‘p uchraydi. Bunda vektoring har bir elementi balandligi uning qiymatiga mos bo‘lgan ustun shaklida ko‘rsatiladi. Ustunlar tartib raqamlariga va eng baland ustunning maksimal qiymatiga nisbatan ma’lum masshtabga ega bo‘ladi. Bunday grafiklar masalan, iqtisodiy o‘zgarish va boshqa jarayonlarni ifodalashi mumkin. Ular bar(a) komandasini yordamida quriladi, masalan:

```
>> a=[2 4 6 8 10 12];
```

```
>> bar(a)
```

komandalari yordamida quyidagi gistogrammani olish mumkin:




17-rasm. Gistogrammadan hosil qilish

Bundan tashqari gistogramma qurishning yana boshqa usuli ham mavjud bo‘lib, bu hist funksiyasi yordamida amalga oshiriladi:

- $N=hist(u)$ - avtomatik tanlangan 10 intervalli vektor qiymatini qaytaradi;
- $N=hist(u,m)$ - huddi yuqoridaq kabi, faqat M (M-skalyar) intarvalda qaytaradi;

Quyidagi misolni ko‘ramiz:

```
>> x=-3:0.2:3; y=randn(1000,1);
>> hist(y,x); h=hist(y,x)
h =
Columns 1 through 13
2 3 4 5 4 12 20 22 30 32 39 56 73
Columns 14 through 26
64 66 88 81 71 72 60 47 33 35 25 20 12
Columns 27 through 31
8 7 3 3 3
>>
```




18-rasm. Gistogrammani misolda foydalanish

Qutbli koordinatalar tizimida ixtiyoriy nuqta xuddi radius vektor oxiri kabi, koordinatalar tizimining boshlang‘ich nuqtasidan chiqib, RHO uzunlikka va THETA burchakka egaligini ko‘rsatadi. RHO(THETA) funksiya grafigini qurish uchun quyida keltirilgan buyruqlardan foydalaniladi. THETA burchak odatda 0 dan  $2\pi$  pi gacha o‘zgaradi. Qutbli koordinatalar tizimida funksiya grafigini qurish uchun quyidagi buyruqlardan foydalaniladi :

- polar(THETA,RHO)- qutbli koordinatalar tizimida radius-vektor oxirining o‘z holatidagi RHO uzunlik bilan va THETA burchakni ko‘rsatuvchi grafikani quradi;
- polar(THETA,RHO, S)- analogli avvalgi buyruqda ishtirok etgan, lekin S qatorli konstanta yordamida qurish uslubini analogli plot buyrug‘i asosida ruxsat beradi.

Quyidagi misolni ko‘ramiz:


```
>> angle=0:.1*pi:3*pi;
>> r=exp(angle/10);
>> polar(angle,r,...)
>> polar(angle,r);
>> title('polyar koordinatida grafik');
>> grid on
```



19-rasm. Polyar koordinatada grafik

Uch o'lchovli grafika. Grafik chizishga doir misollar. Uch o'lchovli fazoda grafik chizish uchun plot3(x,y,z) komandasidan foydalilaniladi. Bunda x,y,z-vektorlar bir xil sondagi koordinatalarga ega bo'lishi kerak, aks xolda sistema xatolikni beradi. Masalan,

```
>> t=0:pi/50:10*pi;
>> plot3(sin(t),cos(t),t)
```



20-rasm. Uch o'lchovli grafika.

Demak, plot3 komandasi yordamida uch o'lchovli fazoda chiziqning grafigini xosil qilish mumkin.

Bundan tashqari uch o'lchovli fazoda sirlarning grafigini hosil qiluvchi quyidagi komandalar mavjud:

- mesh-bu fazoda uch o'lchovli "to'r"ni chizadi;
- surf-fazoda uch o'lchovli sirtni chizadi;
- fill3-fazoda uch o'lchovli to'ldirilgan ko'pburchakni chizadi.

### Nazorat savollari:

1. Matlab integrallashgan sohasi nimalardan tashkil topgan.
2. Matlab dasturida grafika bilan ishlash qanday amalga oshiriladi.

3. Matlab dasturida 3 o'lchovli grafikini hosil qilish xususiyatlari.

## 4- AMALIY MASHG'ULOT

### **MATLAB VEKTOR, MATRITSA, MASSIVLAR BILAN ISHLASH, MATLAB TIZIMIDA DASTURLASH. TEXNIK OBYEKTLARNING IMMITATSION MODELINI YARATISH**

**Ishning maqsadi:** Matlab tizimida vektor, matritsa, massivlar bilan ishlash. 2 va 3 o'lchovli grafiklarni hosil qilishni o'rganish.

#### **Reja:**

1. Nazariy qism bilan tanishib chiqing.
2. Matlab muhiti bilan tanishib chiqing.
3. Matlab integrallashgan sohasini o'rganish.

#### **Nazariy qism**

Matlab - bu shunday interfaol (bevosita) tizimki, undagi asosiy obyekt bo'lgan massivning o'lchamlarini aniq yozish talab qilinmaydi. Bu esa juda ko'p hisoblashlarni (vektor, matritsa ko'rinishidagi) tez vaqtda yechish imkonini beradi. Shuning uchun, Matlabda xotirani dinamik taqsimlash evaziga C va C++ tillaridagiga qaraganda amallar bajarish osonroq kechadi. Matlab tizimi bu ham amaliyot muhiti ham dasturlash tilidir. Tizimning eng kuchli tomonlaridan biri bu Matlab tilida ko'p marta foydalilaniladigan dasturlar yozish mumkinligidir.


Matlab tizimida quyidagi amaliy dasturlar paketi mavjud:

Notebook, Symbolic Mathematik, Control Systems Toolbook, Signal Processing Toolbook, Simulink.

Matlabni yuklash uchun "Pusk" tugmachasi yordamida "Prilojeniya" bandiga kiriladi va dasturlar ro'yxatidan Matlab dasturi tanlanadi yoki ishchi stolda Matlab



belgisi MATLAB ustida sichqoncha ko'rsatkichini ikki marta bosish kerak. Natijada quyidagi darcha hosil bo'ladi.




21-rasm. Matlab dasturining umimiy ko'rinishi

Matlab dasturi quyidagi qismlardan iborat:

1. Sarlavha qatori;
2. Asosiy menyular qatori (File, Edit, View, Graphics, Debug, Desktop, Window, Help);
3. Qo'shimcha amallarni bajarish uchun mo'ljallangan maxsus uskunalar paneli (piktogrammalar);
4. "Current Directory" va "Workspace" darchalari ("Toolbox"da joylashgan modular bilan ishlash imkonini beradi);
5. "Command History" darchasi (oldin ishlatilgan operatorlarni ko'rish va ulardan foydalanish imkonini beradi);
6. Ishi maydon;
7. "Start" bo'limi.

**Matlab dasturida grafika bilan ishlash.** Matlab sirtlar, chiziqlar va boshqa grafik obyektlarni o'zlashtirish va yaratish imkonini beruvchi yuqori darajadagi funksiyalar majmuasini taqdim qiladi.


Grafikni chizish uchun *plot* ifodasidan foydalaniladi. Misol sifatida sin funksiyaning grafigini chizishni olamiz.  $t$  argument bo'yicha 0 dan  $2\pi$  gacha oraliqda 0.03 qadam o'zgarib borishini hisoblash grafigini hosil qilamiz. Grafikni tasvirlash uchun quyidagi ifodani yozamiz:



```
Command Window
File Edit Debug Desktop Window Help
>> t = 0:pi/100:2*pi;
>> y = sin(t);
>> plot(t, y)
```


22-rasm. Dastur matni

Operatorlar ketma – ket kiritilgandan so'ng "enter" tugmasi bosiladi. Natija grafik alohida darchada (figure 1) paydo bo'ladi va quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi.



23-rasm. Sinus funksiyani grafigini hosil qilish


**Matlab dasturida 3 o'lchovli grafikni hosil qilish.** Dasturda masalani yechish, ya'ni sitrlarni tasvirlashda 3 o'lchovli grafiklarni hosil qilishga to'g'ri keladi. Buning uchun quyidagi buyrug'larni kiritish kerak bo'ladi:



```
>> t = 0:pi/10:2*pi;
>> [X,Y,Z] = cylinder(4*cos(t));
>> subplot(2,2,1)
>> mesh(X)
>> subplot(2,2,2); mesh(Y)
>> subplot(2,2,3); mesh(Z)
>> subplot(2,2,4); mesh(X,Y,Z)
>> |
```


24-rasm. Dastur matnini kiritish darchasi

Natijada quyidagi 3 o'lchovli grafik hosil bo'ladi.




25-rasm. 3 o'lchovli grafikni hosil qilish

**Grafiklarni sichqoncha yordamida harakatlantirish.** Figuralarni sichqoncha yordamida har xil burchaklarda harakatlantirish mumkin. Buning uchun Matlab dasturining logotip membranasidan foydalanamiz. Ishchi maydonga *membrane* buyrug'ini kiritamiz. Natijada quyidagi darcha hosil bo'ladi.



26-rasm. Matlab tizimi logotipining membranasi

Grafikni harakatga keltirish uchun uskunalar panelidan aktivlashtirish kerak bo‘ladi. Belgi aktivlashgandan so‘ng sichqonchaning chap tugmasini bosib turgan holda kerakli tomonga aylantirish mumkin bo‘ladi.



27-rasm. 3 o‘lchovli grafikani sichqoncha yordamida aylantirish

**Matlab tizimi operatorlari.** Matlab tizimining operatorlari uchta kategoriyaga bo‘linadi:

- arifmetik operatorlar - hisoblashlarni bajaradi va arifmetik ifodalarni tuzish imkonini beradi;
- munosabat operatorlari - sonli operandlarni solishtirish imkonini beradi;
- mantiqiy operatorlar - mantiqiy ifodalarni tuzish imkonini beradi.

Matlab tizimining arifmetik operatorlari bir xil o‘lchovli massivlar bilan ishlaydi. Vektorlar va to‘g‘ri to‘rtburchakli massivlar uchun ikkala operand ham bir xil o‘lchovga ega bo‘lishi kerak (skalyarlar bundan mutsasno).

Munosabat operatorlari:  $<$   $>$   $<=$   $>=$ .

Munosabat operatorlari teng o‘lchovli ikkita massivni elementlari bo‘yicha solishtirishni bajaradi.

**Oqimlarni boshqarish.** Matlab oqimlarni boshqarish tarkiblarining 5 ta ko‘rinishini o‘z ichiga oladi:

- if operatori;
- switch operatori;
- for takrorlanishi;
- while takrorlanishi;

- break operatori.

if operatori - agar ifoda rost qiymat qabul qilsa, mantiqiy ifodani hisoblaydi va operatorlar guruhini bajaradi.


switch operatori - ifoda yoki o‘zgaruvchilar qiymatida operatorlar guruhini bajaradi.

for takrorlanishi - operatorlar guruhini oldindan qayd qilingan son marta takrorlaydi.

while takrorlanishi - mantiqiy shart bajarilganga qadar operatorlar guruhini ma’lum son marta takrorlaydi.

break operatori - for yoki while takrorlanishidan chiqib ketishni ta’minlaydi.

**Simulink** bibliotekasini ishga tushirish. Uning ish stoli quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi.



28-rasm. Simulink darchasi

### Simulink bibliotekasi ba’zi asosiy bo‘limlari:

- Continuous – chiziqli bloklar
- Discrete – diskret bloklar
- Math Operations – matematik amallar bloklari
- Sinks – registratsiya (ruyxat) qiluvchi qurilmalar
- Sources – signallar va ta’sirlar manbalari
- Nonlinear – chiziqli bo‘limgan bloklar
- Subsystems – ost tizim bloklari

Ushbu berilgan chiziqli tenglamalar sistemasini yechish blok-modeli quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

$$\begin{cases} 3x + y - 2 = 0 \\ x - 2y - 3 = 0 \end{cases}$$

**Simulink Library Browser** - -File - -New - -Model - yangi varak (model) ochiladi.

**Simulink** – qatoridan kerakli blok operatorlarni tanlab olish va yangi ochilgan varaqqa o‘tkazish.

Dastlab **Math Operations** – blogidan **Constraint** va **Gain** operatori tanlab olinadi. Undan so‘ng xuddi shu blokdan **Add**



**Add**

operatori olinadi.

O‘zgarmas qiymatlarni **Sources** blogidan **Constant** operatori yordamida kiritiladi.


Signallarni kuchaytirish operatori **Gain** yordamida kerakli qiymatlarni kuchaytirish yoki kamaytirish mumkin.



**Display**

So‘ngra **Skins** blogidan **Display** operatori tanlab olinadi .

Barcha operatorlar kerakli yo‘nalishdagi signal chiziqlar orqali bir biri bilan tutashtiriladi va yopiq kontur hosil qilinadi.



29-rasm. Natija darchasi

Barcha kontur yopilgandan so‘ng **Star Simulation** bosiladi va disleyda **x,u** qiymatlari paydo bo‘ladi.

### Nazorat savollari:

1. Matlab integrallashgan sohasi nimalardan tashkil topgan.
2. Matlab dasturida grafika bilan ishslash qanday amalga oshiriladi.
3. Matlab dasturida 3 o‘lchovli grafikani hosil qilish xususiyatlari.

## **5-AMALIY MASHG‘ULOT** **KIBERXAVFSIZLIKDA KIPTOGRAFIK USULLARIDAN** **FOYDALANISH**

**Ishdan maqsad:** Kiptografik usullar bilan tanishish va ularning amaliy tatbiq qilish texnologiyasini o’rganish.

### **Reja:**

1. Kriptografiya asoslari bilan tanishish.
2. Shifrlash usullari.
3. Sezar usulida shifrlash.

Kriptografiya deb, maxfiy xabar mazmunini shifrlash, ya’ni ma’lumotlarni maxsus algoritm bo'yicha o'zgartirib, shifrlangan matnni yaratish yo'li bilan axborotga ruxsat etilmagan kirishga to'siq qo'yish usuliga aytildi.

Kalit – kriptografiya o'zgartirishlar algoritmining ba'zi bir parametrlarining manfiy faoliyati bo'lib, barcha algoritmlardan yagona variantini tanlaydi. Kalitlarga nisbatan ishlataladigan asosiy ko'rsatkich bo'lib kriptobardoshlilik hisoblanadi.

- Kriptografiya himoyasida shifrlarga nisbatan quyidagi talablar qo'yiladi:
- yetarli darajada kriptobardoshlilik;
- shifrlash va qaytarish jarayonining oddiyligi;
- axborotlarni shifrlash oqibatida ular hajmining ortib ketmasligi;
- shifrlashdagi kichik xatolarga ta'sirchan bo'lmasligi.
- Ushbu talablarga quyidagi tizimlar javob beradi:
- o'rinalarini almashtirish;
- almashtirish;
- gammalashtirish;
- analitik o'zgartirish.

**O'rinalarini almashtirish shifrlash** usuli bo'yicha boshlang'ich matn belgilarining matnning ma'lum bir qismi doirasida maxsus qoidalar yordamida o'rinalari almashtiriladi.

**Almashtirish shifrlash** usuli bo'yicha boshlang'ich matn belgilari foydalanilayotgan yoki boshqa bir alifbo belgilariga almashtiriladi.

**Gammalashtirish usuli** bo'yicha boshlang'ich matn belgilari shifrlash gammasi belgilari, ya'ni tasodifiy belgilar ketma-ketligi bilan birlashtiriladi.

Taxliliy o'zgartirish usuli bo'yicha boshlang'ich matn belgilari analitik formulalar yordamida o'zgartiriladi, masalan, vektorni matritsaga ko'paytirish yordamida. Bu erda vektor matndagi belgilar ketma-ketligi bo'lsa, matritsa esa kalit sifatida xizmat qiladi.

**O'rinalarni almashtirish usullari.** Ushbu usul eng oddiy va eng qadimiy usuldir. O'rinalarni almashtirish usullariga misol sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- shifrllovchi jadval;
- sehrli kvadrat.
- Shifrllovchi jadval usulida kalit sifatida quyidagilar qo'llaniladi:
- jadval o'lchovlari;
- so'z yoki so'zlar ketma-ketligi;
- jadval tarkibi xususiyatlari.

**1-mashq.** Shifrllovchi jadval usuli yordamida matnni shifrlang.

Quyidagi matn berilgan bo'lsin:

АХБОРОТ\_ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИ\_РИВОЖЛАНТИРИШ

Ushbu axborot ustun bo'yicha ketma – ket jadvalga kiritiladi:

3-jadval

А	О	Е	О	А	—	Ж	И
Х	Т	Х	Г	Р	Р	Л	Р
Б	—	Н	И	И	И	А	И
О	Т	О	Я	Н	В	Н	ИИ
Р	Е	Л	Л	И	О	Т	*

Natijada, 5x8 o'lchovli jadval tashkil qilinadi.

Endi shifrlangan matn qatorlar bo'yicha aniqlanadi, ya'ni o'zimiz uchun 4 tadan belgilarni ajratib yozamiz.

T<sub>1</sub>=АОЕОА\_ЖИ ХТХГРРЛР Б\_НИИИАИ ОТОЯНВНШ РЕЛЛИОТ\*

Bu yerda kalit sifatida jadval o'lchovlari xizmat qiladi.

Hozirgi vaqtida kompyuter tarmoqlarida tijorat axborotlari bilan almashishda uchta asosiy algoritmlar, ya'ni DES, CLIPPER va PGP algoritmlari qo'llanilmoqda. DES va CLIPPER algoritmlari integral sxemalarda amalga oshiriladi. DES algoritmining kriptobardoshliligini quyidagi misol orqali ham baholash mumkin: 10 mln. AQSh dollari xarajat qilinganda DES shifrlash ochish uchun 21 minut, 100 mln AQSh dollari xarajat qilinganda esa 2 minut sarflanadi. CLIPPER tizimi SKIPJACK shifrlash algoritmini o'z ichiga oladi va bu algoritm DES algoritmidan 16 mln marta kuchliroqdir.

Sehrli kvadrat deb, katakchalariga 1 dan boshlab sonlar yozilgan, undagi har bir ustun, satr va diagonal bo'yicha sonlar yig'indisi bitga songa teng bo'lган kvadrat shaklidagi jadvalga aytildi.

Sehrli kvadratga sonlar tartibi bo'yicha belgilar kiritiladi va bu belgilar satrlar bo'yicha o'qilganda matn hosil bo'ladi.

2-mashq. 4x4 o'lchovli sehrli kvadratni olamiz, bu yerda sonlarning 880 ta har xil kombinatsiyasi mavjud. quyidagicha ish yuritamiz:

4-jadval

#### **4x4 o'lchovli sehrli kvadrat**

4	14	15	1
9	7	6	12
5	11	10	8
16	2	3	13

Boshlang'ich matn sifatida quyidagi matnni olamiz:

**DASTURIY TILLAR**

va jadvalga joylashtiramiz:

#### **DASTURIY TILLAR**

T	A	P	Д
—	И	Р	Л
Ў	И	Т	Й
*	А	С	Л

Shifrlangan matn jadval elementlarini satrlar bo'yicha o'qish natijasida tashkil topadi:

TARD \_IRL UITY \*ASL

Almashtirish usullari

Almashtirish usullari sifatida quyidagi usullarni keltirish mumkin:

- Sezar usuli;
- Affin tizimidagi Sezar usuli;
- Tayanch so'zli Sezar usuli va boshqalar.

Ssezar usulida almashtiruvchi harflar k va siljish bilan aniqlanadi. Yuliy Sezar bevosita k q 3 bo'lganda ushbu usuldan foydalangan.

k = 3 bo'lganda va alifbodagi harflar m = 26 ta bo'lganda quyudagi jadval hosil qilinadi:

5-jadval

**k = 3 bo'lganda va alifbodagi harflar m = 26 ta bo'lganda quyidagi jadval hosil qilinadi:**

<b>A</b>	→	<b>D</b>
<b>B</b>	→	<b>E</b>
<b>C</b>	→	<b>F</b>
<b>D</b>	→	<b>G</b>
<b>E</b>	→	<b>H</b>

<b>F</b>	→	<b>I</b>
<b>G</b>	→	<b>J</b>
<b>H</b>	→	<b>K</b>
<b>I</b>	→	<b>L</b>
<b>J</b>	→	<b>M</b>
<b>K</b>	→	<b>N</b>
<b>L</b>	→	<b>O</b>
<b>M</b>	→	<b>P</b>
<b>N</b>	→	<b>Q</b>
<b>O</b>	→	<b>R</b>
<b>P</b>	→	<b>S</b>
<b>Q</b>	→	<b>T</b>
<b>R</b>	→	<b>U</b>
<b>S</b>	→	<b>V</b>
<b>T</b>	→	<b>W</b>
<b>U</b>	→	<b>X</b>
<b>V</b>	→	<b>Y</b>
<b>W</b>	→	<b>Z</b>
<b>X</b>	→	<b>A</b>
<b>Y</b>	→	<b>B</b>
<b>Z</b>	→	<b>C</b>

**3-mashq.** Matn sifatida KOMPYUTER so'zini oladigan bo'lsak, Sezar usuli natijasida quyidagi shifrlangan yozuv hosil bo'ladi: NRPSBXWHU.

Sezar usulining kamchiligi bu bir xil harflarning o'z navbatida bir xil harflarga almashishidir.

Hozirgi vaqtida kompyuter tarmoqlarida tijorat axborotlari bilan almashishda uchta asosiy algoritmlar, ya'ni DES, CLIPPER va PGP algoritmlari qo'llanilmoqda. DES va CLIPPER algoritmlari integral sxemalarda amalga oshiriladi. DES algoritmining kriptobardoshliligin quyidagi misol orqali ham baholash mumkin: 10 mln. AQSH dollari xarajat qilinganda DES shifrlash ochish uchun 21 minut, 100 mln AQSH dollari xarajat qilinganda esa 2 minut sarflanadi. CLIPPER tizimi SKIPJACK shifrlash algoritmini o'z ichiga oladi va bu algoritm DES algoritmidan 16 mln marta kuchliroqdir.

PGP algoritmi esa 1991 yilda Philipp Simmerson (AQSH) tomonidan yozilgan va elektron pochta orqali kuzatiladigan xabarlarni shifrlash uchun ishlataladigan PGP dasturlar paketi yordamida amalga oshiriladi. FGP dasturiy vositalari Internet tarmog'ida elektron pochta orqali axborot jo'natuvchi foydalanuvchilar tomonidan shifrlash maqsadida keng foydalanilmoqda.

PGP (Pretty Good Privacy) kriptografiya dasturining algoritmi kalitli, ochiq va yopiq bo'ladi.

**O'rin almashtirish usullari.** O'rin almashtirish usullariga binoan dastlabki matn belgilangan uzunlikdagi bloklarga ajratilib har bir blok ichidagi simvollar o'rni ma'lum algoritm bo'yicha almashtiriladi.

Eng oson o‘rin almashtirishga misol tariqasida dastlabki axborot blokini matritsaga qator bo‘yicha yozishni, o‘qishni esa ustun bo‘yicha amalga oshirishni ko‘rsatish mumkin. Matritsa qatorlarini to‘ldirish va shifrlangan axborotni ustun bo‘yicha o‘qish ketma-ketligi kalit yordamida berilishi mumkin. Usulning kriptobardoshligi blok uzunligiga (matritsa ulchamiga) bog‘liq. Masalan uzunligi 64 simvolga teng bo‘lgan blok (matritsa o‘lchami 8x8) uchun kalitning  $1,6 \cdot 10^9$  kombinatsiyasi bo‘lishi mumkin. Uzunligi 256 simvolga teng bo‘lgan blok (matritsa o‘lchami 16x16) kalitning mumkin bo‘lgan kombinatsiyasi  $1,4 \cdot 10^{26}$  ga yetishi mumkin. Bu holda kalitni saralash masalasi zamonaviy EHMLar uchun ham murakkab hisoblanadi.

*Gamilton marshrutlariga* asoslangan usulda ham o‘rin almashtirishlardan foydalilanildi. Ushbu usul quyidagi qadamlarni bajarish orqali amalga oshiriladi.


*1-qadam.* Dastlabki axborot bloklarga ajratiladi. Agar shifrlanuvchi axborot uzunligi blok uzunligiga karrali bo‘lmasa, oxirgi blokdagi bo‘sh o‘rnlarga maxsus xizmatchi simvollar-to‘ldiruvchilar joylashtiriladi (masalan, \*).

*2-qadam.* Blok simvollarini yordamida jadval to‘ldiriladi va bu jadvalda simvolning tartib raqami uchun ma’lum joy ajratiladi (5.5-rasm).

*3-qadam.* Jadvaldagi simvollarini o‘qish marshrutlarning biri bo‘yicha amalga oshiriladi. Marshrutlar sonining oshishi shifr kriptobardoshligini oshiradi. Marshrutlar ketma-ket tanlanadi yoki ularning navbatlanishi kalit yordamida beriladi.

*4-qadam.* Simvollarining shifrlangan ketma-ketligi belgilangan  $L$  uzunlikdagи bloklarga ajratiladi.  $L$  kattalik 1-qadamda dastlabki axborot bo‘linadigan bloklar uzunligidan farqlanishi mumkin.


Rasshifrovka qilish teskari tartibda amalga oshiriladi. Kalitga mos holda marshrut tanlanadi va bu marshrutga binoan jadval to‘ldiriladi.



30-rasm. 8-elementli jadval va Gamilton marshrutlari variantlari

Jadvaldan simvollar element nomerlari kelishi tartibida o‘qiladi.

*Misol.* Dastlabki matn  $T_0$  «O‘RIN ALMASHTIRISH USULI»ni shifrlash talab etilsin. Kalit va shifrlangan bloklar uzunligi mos holda quyidagilarga teng:  $K = \langle 2, 1, 1 \rangle$ ,  $L = 4$ . Shifrlash uchun 5.6-rasmida keltirilgan jadval va ikkita marshrutdan foydalilanildi. Berilgan shartlar uchun matritsalari to‘ldirilgan marshrutlar 5.10-rasmida keltirilgan ko‘rinishga ega.



31-rasm. Gamilton marshruti yordamida shifrlash misoli

*1-qadam.* Dastlabki matn uchta blokka ajratiladi.

$B1=$ <O'RIN\_ALM>,  $B2=$ <ASHTIRISH->,  $B3=$ <USULI\*\*>;

*2-qadam.* 2,1,1 marshrutli uchta matritsa to'ldiriladi;


*3-qadam.* Marshrtlarga binoan simvollarni joy-joyiga qo'yish orqali shifrmatnni hosil qilish.

$T_1=$ <NMLIO'RA\_TIShARI\_ShL\_UUS\_I>

*4-qadam.* Shifr matnni bloklarga ajratish.

$T_1=$ <NMLI O'RA\_TIShA RI\_Sh L\_U US\_I>

Amaliyotda o'rin almashtirish usulini amalga oshiruvchi maxsus apparat vositalar katta ahamiyatga ega (5.7-rasm).



32-rasm. O'rin almashtirish sxemasi

Dastlabki axborot blokining parallel ikkili kodi (masalan, ikki bayt) sxemaga beriladi. Ichki kommutatsiya hisobiga sxemada bitlarning bloklardagi o'rirlari

almashtiriladi. Rasshifrovka qilish uchun esa sxemaning kirish va chiqish yo'llari o'zaro almashtiriladi.

O'rIN almashtirish usullarining amalga oshirilishi sodda bo'lsada, ular ikkita jiddiy kamchiliklarga ega. Birinchidan, bu usullarni statistik ishlash orqali fosh qilish mumkin. Ikkinchidan, agar dastlabki matn uzunligi  $K$  simvollardan tashkil topgan bloklarga ajratilsa, shifrni fosh etish uchun shifrlash tizimiga bittasidan boshqa barcha simvollarini bir xil bo'lgan test axborotining  $K-1$  blokini yuborish kifoya.

### **Nazorat savollari:**

1. Kriptografiya deb nimaga aytildi?
2. Kriptografiyada qanday ko'p qo'llaniladigan usullarni bilasiz?
3. Sezar usuli qanday usul?
4. Ochiq va yopiq kalitlar haqida aytib bering.

## **6-AMALIY MASHG'ULOT OBYEKTA YO'NALTIRILGAN DASTURLASH TEXNOLOGIYALARI**

**Ishdan maqsad:** Vizual dasturlash bilan tanishish va obyekt xossalarni tahrirlash va ularni boshqarish usullarini o'rganish.

### **Reja**

1. Nazariy qism bilan tanishish.
2. Dastur tuzish asoslarini o'rganish.
3. Ilovalar yaratish.

### **Nazariy qism**

Borland C++ Builder 6 dasturida dasturlash ikkita o'zaro ta'sir etuvchi bir-biri bilan bog'liq jarayon asosida tashkil qilinadi:

- dasturni vizual loyihalash jarayoni;
- dastur kodlarini konsol muhitida kiritish jarayoni.

Vizual loyihalash jarayonida dasturda yaratilayotgan ilovaning dizayni shakllanadi. Dasturchi vizual loyihalash jarayonini bajarganda Borland C++ Builder 6 avtomatik ravishda dastur kodini yaratishni boshlaydi. Dasturchi loyihasini ishlashi mobaynida dastur kodini C++ tilining maxsus operatorlari bilan to'ldiradi.

Borland C++ Builder 6 dastur ham Windows amaliyot tizimining boshqa dasturlari kabi ishga tushiriladi:


Пуск => Все программы => Borland C++ Builder 6 => C++ Builder 6.  
 Dastur yuklangandan keyin ekranda darcha paydo bo‘ladi. Borland C++ Builder 6 dasturi quyidagi beshta asosiy darchani o‘z ichiga oladi:

1. Bosh oyna – C++ Builder 6 (Project1);
2. Forma oynasi (Form1);
3. Obyekt xossalari tahrirlash oynasi (Object Inspector);
4. Obyektlar ro‘yxatini ko‘rish oynasi (Object tree View);
5. Dastur kodlarini kiritish oynasi (Unit.cpp).


**Bosh oyna** (Project1) ekranning yuqori qismida joylashgan bo‘lib, uning birinchi qatorida sarlavha, ya’ni loyihaning nomi (C++ Builder 6 – Project1) joylashgan.

Ikkinci qatorda asosoiy menyular qatori gorizontal ko‘rinishda joylashgan. Asosiy menyular qatori dasturni yaratish uchun kerak bo‘ladigan barcha buyrug‘lar va funksiyalarga murojaat qilish imkonini yaratadi.

Keyingi qatorning chap tarafida tezkor murojaat etish tugmalari mavjud. Bajaradigan vazifasiga qarab ketma-ketlikda birlashtirilgan. Ular tez-tez ishlataladigan buyruqlarga tezkor murojaat etish imkonini beradi. O‘ng tarafida vizual komponentalar palitrasи VCL (Visual Component Library, vizual komponentalar kutubxonasi) keltirilgan. Windows operatsion tizimi ilovalarni yaratish uchun vizual komponentalarni o‘z ichiga oladi. Vizual komponentalar palitrasи bir nechta qismlardan iborat guruhlarga bo‘lingan. Bu vizual komponentalar palitrasи yordamida tezkor va oson usulda dasturlarni yaratish mumkin.




33-rasm. Borland C++ Builder 6 integrallashgan sohasi



34-rasm. Bosh oyna


**Forma oynasi** (Form1) yangi yaratilishi kerak bo‘ladigan dasturning ko‘rinishi hisoblanadi. Forma oynasi C++ Builder 6 ilovalari uchun asos bo‘lib, unda yaratilayotgan dasturga komponentalarni joylashtirish mumkin. U dasturning sarlavhasidan boshlanadi.



35-rasm. Forma oynasi

**Object Inspector oynasi** (Object Inspector) obyekt xossalari va hodisalarini tahrirlash uchun xizmat qiladi. Obyektga yo‘naltirilgan dasturlashda dastur bu obyektlar tizimi bo‘lib, har bir obyekt bir qator xossalarga ega bo‘lishi mumkin. Xossa esa ma’lumotlar va ularni boshqarish usullaridan iborat. Obyekt xossalari bu – obyektga berilgan xarakteristika bo‘lib, uning ko‘rinishi, joylashishi va holatidir. Bundan tashqari obyekt turli hodisalarini ham o‘rnatishi mumkin. Hodisa deb bajarish, boshqarish usuliga aytildi, masalan, sichqonni bosish, kursorni siljитish va hokazo amallarga aytildi.

Object Inspector oynasi xossa va hodisalar parametrlarini o‘rnatish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, u ikkita sahifadan iborat: Propierities (xossalari:a-rasm) va Events (hodisalar: b-rasm).




36-rasm. Object Inspector oynasi.  
a) “Properties” darchasi; b) “Events” darchasi

Properties sahifasi ajratilgan obyekt yoki komponentaning xossalarini o‘rnatadi. Masalan, Caption (yozuv) yordamida obyekt yozuvini o‘rnatish mumkin, Color (rang) xossasi obyektning rangini o‘rnatadi.

Events (hodisalar) sahifasida Forma ilovasida tanlangan obyekt uchun dastur bajarilishi jarayonida hodisa, ya’ni uni ishga tushirish holati belgilanadi. Har bir holatning standart nomi belgilangan. Masalan, OnClick – sichqonchaning chap tugmasini bir marta bosish, OnDblClick – sichqonchaning chap tugmasini bir marta bosish.

**Obyektlar ro‘yxatini ko‘rish oynasi** (Object Tree View) dasturda ishlatalayotgan komponentalarni daraxt ko‘rinishida tasvirlab beradi. Komponentalarni joylashuvini va ularning holatini ko‘rsatib turadi.



37-rasm. Obyektlar ro‘yxatini ko‘rish oynasi

**Dastur kodlarini kiritish oynasi** (Unit.cpp) yaratilayotgan yangi dasturning kodini (matni) kiritish va uni tahrirlash uchun foydalilanadi. Dasturda ma’lum jarayonini amalga oshirishi uchun kerak bo‘ladigan operatorlar ketma-ketligi kiritiladi.

```

Unit1.cpp
//-----
#include <vcl.h>
#pragma hdrstop

#include "Unit1.h"
//-----
#pragma package(smart_init)
#pragma resource "*.*dfm"
TForm1 *Form1;
//-----
__fastcall TForm1::TForm1(TComponent* Owner)
    : TForm(Owner)
{
}
//-----

```

38-rasm. Dastur kodlarini kiritish oynasi


Konsol muhitida “Hello world” so‘zini chiqaruvchi dasturni ko‘rib chiqamiz. Buning uchun yangi konsol muhitini ochamiz. Ochilgan muhitda quyidagi dastur matni kiritiladi:

```

#include <vcl.h>
#include <iostream.h>
#include <conio.h>
#pragma hdrstop
//-----
#pragma argsused
int main(int argc, char* argv[])
{
    cout << "Hello, World!" << endl;
    getch();
    return 0;
}
//-----

```

Natijada quyidagi dastur ko‘rinishi paydo bo‘ladi:



39-rasm. Natija oynasi

Misol. R radiusli sharning hajmi quyidagi formula bo‘yicha hisoblansin:


$$V = \frac{4}{3} \pi R^3$$

```

Dastur quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi.
#include <stdio.h>
#include <iostream.h>
#include <conio.h>
#include <math.h>
#include <vcl.h>
#pragma hdrstop
//-----
#pragma argsused
int main(int argc, char* argv[])
{ float pi=3.14;
  float r,v;
  cout << "R radius qiymatini kirititing:<<"\n";
  cin >>r;
  v=4/3*(pi*pow(r,2));
  cout << "Natija: "<<"\n";
  cout <<"Shar hajmi x="<<v;
  getch();
  return 0;
}
//-----

```

Dastur matni kiritib bo‘lingandan so‘ng F9 tugmasi bosiladi va natijada quyidagi dastur ko‘rinishi paydo bo‘ladi:



40-rasm. Natija oynasi

1-misol. y funksiyaning qiymatini aniqlash dasturi tuzilsin. Konsol muhitida amalga oshirilsin.

$$y = \begin{cases} \frac{4r + 3m^2}{r - m}, & \text{agar } r \geq m + 1 \\ |r - m|, & \text{agar } r < m + 1 \end{cases}$$

Dastur matni quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

```


//-----
#include <stdio.h>
```

```

#include<iostream.h>
#include<conio.h>
#include <math.h>
#include <vcl.h>
#pragma hdrstop
//-----
#pragma argsused
int main(int argc, char* argv[])
{ float y, r, m;
cout<<"r -qiymatini kiriting"<<"\n"; cin>>r;
cout<<"m -qiymatini kiriting"<<"\n"; cin>>m;
if (r>=m+1)
{y=(4*r+3*pow(m,2))/(r-m);
cout<<"Funksiya 1-shart asosida aniqlandi, y="<<y;} else
{y=fabs(r-m);
cout<<"Funksiya 2-shart asosida aniqlandi, y="<<y;
} getch();
return 0;
}
//-

```

Dastur matni kiritib bo‘lingandan so‘ng F9 tugmasi bosiladi va natijada quyidagi dastur ko‘rinishi paydo bo‘ladi:



41-rasm. Natija oynasi

### **Nazorat savollari:**

1. Borland C++ Builder tizimi qanday dasturlash texnologiyalarini o‘zida birlashtirgan?
2. Borland C++ Builder tizimi ishchi oynasi qanday tarkibiy qismlardan iborat?

## 7-AMALIY MASHG'ULOT MANTIQIY DASTURLASH TEXNOLOGIYASI

**Ishdan maqsad:** Mantiqiy dasturlash bo'yicha ko'nikmalarni olish. Murakkab tarmoqlanuvchi hisoblash jarayonlarini amalga oshirishni o'rghanish.

### Reja

1. Nazariy qism bilan tanishish.
2. Tarmoqlanuvchi jarayonlarni dasturlash.
3. Mantiqiy dasturlashni o'rghanish.
4. Hisobot tayyorlash.

### Nazariy qism

Ko'pgina masalalarni yechishda ba'zi bir jarayonlar ma'lum shart yoki shartlarning qo'yilishiga nisbatan bajariladi, ya'ni shartning bajarilishi yoki bajarilmasligiga ko'ra boshqa jarayonlar, amallar tanlanadi. Bunday jarayonlar "Tarmoqlanuvchi jarayonlar" deb yuritiladi.

Tarmoqlanuvchi hisoblash jarayonlari oddiy va murakkab bo'lishi mumkin. Bu esa jarayondagi tarmoqlar soniga bog'liq. Ma'lum bir tarmoqlanuvchi jarayon tarkibida yana tarmoqlanishlar bo'lishi mumkin. Bunday tarmoqlanishlari bor bo'lgan hisoblash jarayonlari "Murakkab tarmoqlanuvchi hisoblash jarayonlari" deb ataladi.

C++ tilida tarmoqlanuvchi jarayonlarni dasturlash uchun shartsiz, shartli o'tish va tanlash operatorlaridan foydalaniladi.

Dasturda boshqaruvni ma'lum shart asosida u yoki bu tarmoqqa (ma'lum jarayonlar ketma-ketligi) uzatish shartli o'tish operatori yordamida amalga oshiriladi. Shartli o'tish operatori ikki xil: to'liq va qisqa ko'rinishda ishlatalishi mumkin.

Shartli o'tish operatorining to'liq ko'rinishini ko'rib chiqamiz. Uning dasturda ko'rinishi quyidagicha yoziladi:

```
if (<mantiqiy ifoda>) <operator -1>; else <operator-2>;
```

bu yerda: if – agar, else – aks holda ma'nosini anglatuvchi xizmatchi so'zlar, operator -1 va operator -2 ixtiyoriy operatorlar.


Operatordagi mantiqiy ifoda boshqaruvni uzatish shartini belgilaydi.

Operatorning ishlash tartibi quyidagicha: agar keltirilgan mantiqiy ifoda true (rost) qiymatni qabul qilsa, ya'ni qo'yilgan shart bajarilsa; operator - 1 bajariladi, aks holda else xizmatchi so'zdan keyingi operator - 2 bajariladi.

Misol. y funksiyaning qiymatini aniqlash dasturi tuzilsin. Vizual muhitida amalga oshirilsin.

$$y = \begin{cases} 3x^2 - 3abx & \text{agar } a > 0 \\ 13a - b^2x & \text{agar } a \leq 0 \end{cases}$$

Bu misolni yechish algoritmi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:



42-rasm. Dastur blok sxemasi

Misolni vizual muhitda dasturlash uchun 4 ta Label, 2 ta Edit, 2 BitBtn va RadioGroup komponentalari kerak bo‘ladi.


Forma darchasiga o‘rnatilgan komponentalar xususiyatlarini quyidagicha belgilaymiz:

6-jadval.  
Komponentalar xususiyatlarini kiritish

Komponenta nomi	Xususiyat nomi (Object Inspector darchasining xolati)	Amalga oshiriladigan jarayon
Form1	Caption (Properties)	“Tarmoqlanuvchi jarayon” so‘zi kiritiladi.
Label1	Caption (Properties)	“A ning qiymatini kirit” so‘zi kiritiladi.
Label2	Caption (Properties)	“B ning qiymatini kirit” so‘zi kiritiladi.

Label3	Caption (Properties)	“X ning qiymatini kirit” so‘zi kiritiladi.
Label4	Caption (Properties)	“Y=” so‘zi kiritiladi.
Edit1	Text (Properties)	“Edit1” so‘zini o‘chirib tashlang.
Edit2	Text (Properties)	“Edit2” so‘zini o‘chirib tashlang.
BitBtn1	Kind (Properties)	“bkOK” xususiyati tanlanadi.
	Caption (Properties)	“Natija” so‘zi kiritiladi.
	OnClick (Events)	Dastur matni kiritiladi.
BitBtn2	Kind (Properties)	“bkClose” xususiyati tanlanadi.
	Caption (Properties)	“Chiqish” so‘zi kiritiladi.
	OnClick (Events)	Close(); kiritiladi.
RadioGroup1	Caption (Properties)	“Shartga tekshirish” so‘zi kiritiladi.
	Items (Properties)	“A>0 shart bajarilsa va A=<0 shart bajarilsa” so‘zi kiritiladi

Mavjud komponentalar xususiyatlari kiritilgandan so‘ng dastur dizayni quyidagi ko‘rinishga keladi:



43-rasm. Dastur ko‘rinishi

Dastur dizayni tayyor bo‘laganidan so‘ng quyidagi dastur matni kiritiladi:

```
//-----
#include <vcl.h>
#include <math.h>
#pragma hdrstop
#include "Unit1.h"
//-----
#pragma package(smart_init)
#pragma resource "* .dfm"
TForm1 *Form1;
//-----
__fastcall TForm1::TForm1(TComponent* Owner)
    : TForm(Owner)
{
```


```

}

//-----
void __fastcall TForm1::BitBtn1Click(TObject *Sender)
{
float y,x,a,b;
a=StrToInt(Edit1->Text);
b=StrToInt(Edit2->Text);
x=StrToInt(Edit3->Text);
if (a>0) {
    y= 3*pow(x,2)-3*a*b*x;
    RadioGroup1->ItemIndex=0;
    Label4->Caption ="y="+FloatToStrF(y,ffFixed,6,4);
}
else {
    y=13*a-pow(b,2)*x;
    RadioGroup1->ItemIndex=1;
    Label4->Caption ="y="+FloatToStrF(y,ffFixed,6,4);
} }
//-----
void __fastcall TForm1::BitBtn2Click(TObject *Sender)
{
Close();
}
//-----

```

Dastur matni kiritib bo'lingandan so'ng F9 tugmasi bosiladi va natijada quyidagi dastur ko'rinishi paydo bo'ladi:



44-rasm. Natija oynasi

### Nazorat savollari:

1. Tarmoqlanuvchi jarayon deb qanday hisoblash jarayonlariga aytildi?
2. Tarmoqlanuvchi jarayon tarkibi qanday qismlardan iborat?
3. Tarmoqlanuvchi operatorlarini sanab bering.

## **8 - AMALIY MASHG‘ULOT** **DASTURLASH TIZIMLARIDA ILOVALAR YARATISH** **TEXNOLOGIYASI**

**Ishdan maqsad:** Dasturlash yordamida zamonaviy ilovalar yaratish texnologiyasi o’rganish.

### **Reja**

1. Nazariy qism bilan tanishib chiqing.
2. Fayllar bilan ishlashni mo’ljallangan protsedura va funksiyalarni o‘rganib chiqing.
3. Ma‘limotlarning faylli toifasi yordamida dastur tuzing.

### **Nazariy qism**

C++ ixtiyoriy dasturida o‘zida tur, o‘zgarmas, makros, funksiya va sinflar aniqlangan standart kutubxonaga murojaat mavjud bo‘ladi.

Ularni dasturda qo‘llash uchun **#include** direktivasi yordamida dasturning boshlang‘ich matniga mos e’lonlardan tashkil topgan sarlavha fayllarni (заголовочный файл) kiritish lozim.

Kutubxona funksiyalarini ularni qo‘llanilishiga qarab quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin: kiritish/chiqarish, qatorlarni qayta ishslash, matematik funksiyalar, dinamik xotira bilan ishslash, qidirish, saralash va boshqalar.

C++da qiritish/chiqarish oqimlar orqali amalga oshiriladi. C++da oqimlar orqali kiritish/chiqarish funktsiyalarini qo‘llash uchun dasturda quyidagi sinflarni ishlatish kerak:

**<iostream.h>**- kiritish oqimi;  
**<ostream.h>** - chiqarish oqimi;  
**<iostream.h>** - kiritish/chiqarish.

Kiritish/chiqarishda ma'lumotlar baytlar oqimi sifatida qaraladi. Fizik jihatdan oqim faylni tashkil qiladi.

Quyidagi faylli oqimlar fayllar bilan ishslash uchun xizmat qiladi:

1) **ofstream name(“ path\file\_name”);** - faylli chiqarish. Oqimni aniq fayl bilan bog‘laydi, faylni yozish uchun ochadi. Bu yerda name - oqim nomi (ixtiyoriy identifikator), faylga ma‘lumotlarni yozish va yoki undan o‘qishda shu nomdan foydalananiladi. path\file\_name - fizik faylning yo‘li.

Masalan: **ofstream book(“c:\kitob\bob\bo‘lim1.dat”);**

Agar faylning yo‘li ko‘rsatilmasa, u holda fayl joriy katalogda yaratiladi:

**ofstream books(“bo‘lim1.dat”);**

2) **ifstream name(“ path\file\_name”);** - faylni undan ma‘lumotlar o‘qish uchun ochadi.

Masalan: **ifstream book(“c:\kitob\bob\bo‘lim1.dat”);**  
**ifstream books(“\bo‘lim1.dat”);**

O‘qish va yozish uchun ochilgan fayllarni albatta yopish kerak -  
***name.close();***  
***Book.close(); books.close();***

Fayllar bilan ishslash uchun Forma ilovasini yaratishda turli bo‘limlardan iborat menyular tashkil qilish, fayllarni saqlash, ochish tugmalarini o‘rnatgan holda bu amallarni bajarish imkoniyatlari mavjud:

 ***TMainMenu*** – bosh menu yaratish uchun ishlatiladi. Menyuni yaratish uch qadamdan iborat: 1) *TMainMenu* formaga o‘rnatish; 2) obyektlar inspektorining *Items* xususiyati yordamida menu dizaynerini chaqirish; 3) menu dizaynerida menu qismlarini kiritish.

 ***OpenDialog*** – kerakli faylni ochish uchun ishlatiladigan komponenta.

 ***SaveDialogs*** – faylni saqlash uchun ishlatiladigan komponenta.

Bu komponentalar Windowsning muloqot oynalari hisoblanadi va dialog komponentalar menyusida joylashgan bo‘ladi.

Quyidagi masalada ularning ba‘zi birlari bilan tanishtirib chiqamiz.

**Masala.** Fayllar bilan ishslash uchun yangi forma yarating.

Qo‘yilgan masalani yechish uchun quyidagi tartibda amallarni bajaring:

a) yaratilgan formaga Standart bo‘limidan  *MainMenu* komponentasini tanlang va kerakli joyga o‘rnating. *MainMenu* komponentasi formaga yangi menu yaratish uchun ishlatiladi.  piktogrammasining ustida 2 marta bosing va kerakli menu nomlarini object inspector bo‘limidagi ***caption***da yangi menu nomini kriting.

b) standart menu bo‘limidan ***Memo*** komponentasini o‘rnating. Object inspector bo‘limida ***Lines*** xossasiga kirib, ***Memo1*** so‘zini o‘chirib tashlang. Object inspector bo‘limida ***align*** xossasini ***alclientga*** almashtiring.

d) ***dialogs*** menu bo‘limidan  ***OpenDialogs*** komponentasini o‘rnating. Object inspector bo‘limida ***Filter*** xossasiga kirib, filter bo‘limiga ***\*.txt*** so‘zini kriting.

e) ***dialogs*** menu bo‘limidan  ***SaveDialogs*** komponentasini o‘rnating. Object inspector bo‘limida ***Filter*** xossasiga kirib, filter bo‘limiga ***\*.txt*** so‘zini kriting.

Dastur kodi:

```
//-----
#pragma package(smart_init)
#pragma resource "*.*dfm"
TForm1 *Form1;
//-----
_fastcall TForm1::TForm1(TComponent* Owner)
 : TForm(Owner)
{
```


```

}

//-----
void __fastcall TForm1::Saqlash1Click(TObject *Sender)
{
    if(Form1->SaveDialog1->Execute())
Form1->Memo1->Lines->SaveToFile(Form1->SaveDialog1-
>FileName+"txt");
}
//-----
void __fastcall TForm1::Ochish2Click(TObject *Sender)
{
    if(Form1->OpenDialog1->Execute())
Form1->Memo1->Lines->LoadFromFile(Form1->OpenDialog1-
>FileName);
}
//-----
void __fastcall TForm1::Help1Click(TObject *Sender)
{
    //showmessage("do you have question");
}
//-----
void __fastcall TForm1::Close1Click(TObject *Sender)
{
    Form1->Close();
}
//-----

```

Natijada quyida ko‘rsatilgan oyna chiqadi (10-rasm):



45-rasm. Menyu tashkil qilingan oyna ko‘rinishi

### **Nazorat savollari:**

1. Fayl nima?
2. C++ tilida fayllarning necha xil turi mavjud?
3. Fayl bilan ishlash uchun qaysi funksiya va protseduralar mavjud?

## **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Kadirov M.M. Axborot texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma, 1-qism. – T.: Sano-standart, 2018. - 320 b.
2. Kadirov M.M. Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari. Darslik, 2-qism. – T.: Fan va texnologiya, 2018. - 288 b.
3. Kunwoo Lee. Principles of CAD/CAM/CAE: The Computer Aided Engineering Design Series. 5st Edition. Addison Wesley Longman, USA, 2015.
4. Alex Allain. Jumping into C++. USA, 2014. p 340.
5. Nazirov Sh.A., Qobulov R.V., Bobojonov M.R., Raxmanov Q.S. C va C++ tili. Darslik. –T.: Voris, 2013. - 488 b.
6. Ganiyev S.K., Karimov M.M., Tashev K.A. Axborot xavfsizligi. Oliy o‘quv yurti talabalari uchun darslik. –T.: Fan va texnologiya, 2017. - 372 b.

## **Qo‘sishimcha adabiyotlar**

7. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2017-yil 7-fevral, PF-4947-son.
8. Kenjabayev A.T., Ikramov A., Allanazarov A.Sh. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2017. - 408 b.
9. Nazirov Sh.A., Ivanova G.S., Gaynazarov S.M. Dasturlash texnologiyalari. Darslik. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014. -280 b.

## **Internet saytlari**

10. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portalı.
11. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
12. [www.ru.wikipedia.org](http://www.ru.wikipedia.org)
13. <http://www.cadcamcae.lv/>
14. [labcenter-electronics.com](http://labcenter-electronics.com)
15. <http://ziyonet.uz/uze>

## Mundarija

1-amaliy mashg‘ulot	MATHCAD tizimi. tizimning ishlash texnologiyasini o’rganish. MATHCAD integrallashgan sohasida muhandislik masalalarini yechish.	3
2-amaliy mashg‘ulot	MATHCAD tizimida funksiya grafiklarini amalga oshirish.	8
3-amaliy mashg‘ulot	MATLAB muhiti, uning integrallashgan sohasini o‘rganish. Simulink paketi.	13
4-amaliy mashg‘ulot	MATLAB vektor, matritsa, massivlar bilan ishlash, matlab tizimida dasturlash. texnik ob’ektlarni immitatsion modelini yaratish.	22
5-amaliy mashg‘ulot	Himoyalashning kriptografik usullaridan foydalanish. sezar usuli	27
6-amaliy mashg‘ulot	Obyektga yo’naltirilgan dasturlash texnologiyalari	34
7-amaliy mashg‘ulot	Mantiqiy dasturlash texnologiyasi	40
8-amaliy mashg‘ulot	Dasturlash tizimlarida ilovalar yaratish texnologiyasi	45
<b>Foydalanilgan adabiyotlar.</b>		48

**Tuzuvchilar:**

Kadirov M.M., To‘laganov Z.Ya., Zokirova F.R.

Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari

Amaliy mashg‘ulotlarni bajarish uchun  
o‘quv-uslubiy ko‘rsatmalar

Muharrir: Miryusupova Z.M.